



“DEVONU LUG‘OTIT-TURK” LEKSIKASINING TURKOLOGIYADA XX ASRNING IKKINCHI YARMIDAN KEYIN O‘RGANILISHI

Ahmadjonova Maftuna Alijon qizi,

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
2-bosqich tayanch doktoranti*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15243832>

Annotatsiya: Til hodisasi necha asrlardan buyon tilshunos olimlar tomonidan o‘rganilmoqda va tadqiq etilmoqda. O‘zbek leksikografiyasiga bevosita aloqador qo‘lyozma lug‘atlar tuzish XI asrdan XIX asrning birinchi yarmigacha bo‘lgan davrni qamrab oladi va ularning ibtidosi, albatta, “Devonu lug‘otit-turk” hisoblanadi. Bu asar jahon tilshunos olimlari e‘tiborini tortgan qadimiy asarlardan biridir. “Devonu lug‘otit-turk” turkiy so‘zlarning arabcha izohli lug‘ati bo‘lgani uchun ilmiy jihatdan alohida ahamiyatga molikdir. Devon topilgandan keyin ko‘p tillarga tarjima qilindi, juda ko‘p olimlar tomonidan o‘rganildi, tadqiq qilindi. Devon bo‘yicha shu kungacha juda ko‘p dissertatsiya va maqolalar yozildi. “Devonu lug‘otit-turk” asarini dialektologik aspektda tahlil qilish tilshunoslikda ilmiy izlanishlar uchun zamin bo‘la oladi.

Kalit so‘zlar: “Devonu lug‘otit-turk”, tarjima, devon, maqola, dissertatsiya, tilshunos olimlar, leksikografiya, lug‘at.

Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari o‘zbek tili tarixida yaratilgan asarlar orasida o‘zining ilmiy qiymatiga ko‘ra alohida ajralib turadi. Bu asarda XI asrning 2-yarmida Markaziy Osiyoda va G‘arbiy Xitoy hududida istiqomat qilgan turkiy urug‘ va qabilalar, ularning ijtimoiy ahvoli, tili, tarixi, bu hududning geografiyasi, metrologiyasi va astronomiyasiga oid qimmatli ma‘lumotlar yozib qoldirilgan. “Devonu lug‘otit-turk” [arabcha: tarjimasi “Turkiy so‘zlar devoni”] — Mahmud Qoshg‘ariyning turkiy tillar haqidagi qomusiy asari [1071:72]. “Devonu lug‘otit-turk”ning qo‘lyozmasi 1914-yil Turkiyaning Diyorbakr shahridan topilgan. 319 sahifali bu qo‘lyozma hozirgi Istanbulda saqlanadi.

XX asrning ikkinchi yarmida ham ko‘plab rus va o‘zbek tadqiqotchilari “Devonu lug‘otit turk”ni o‘rganib, ilmiy izlanishlar olib borishgan. Ma‘lumki, har qanday til hodisasini tarixiy jihatdan o‘rganishning birdan-bir ilmiy metodi o‘sha davr qo‘lyozmalariga asoslanish va u yozma yodgorliklar tili bilan hozirgi tilni qiyos etib chiqish va shu asosda ikki oradagi yaqinlikni aniqlashdir. Bu ishda XI asr yozma yodgorliklari: “Qutadg‘u bilig” va “Devonu lug‘otit turk” nomli asarlarga asoslanish mumkin. Bu asarlar bir tarafdin bizgacha etib kelgan yodgorliklarning eng eskilari bo‘lgani uchun muhim bo‘lsa, ikkinchidan, bu asarlar XI asrdagi jonli va adabiy tilning eng ishonchli manbalari sifatida ham muhimdir.

“Devonu lug‘otit-turk”da 250 dan ortiq maqol va matallar, o‘nlab she‘riy parchalar keltirilgan. Ushbu maqolada Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” asarining o‘rganilishi tahlil qilingan bo‘lib, J.Xudayberdiyevning “Mahmud

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



Qoshg‘ariy hayoti va “Devonu lug‘otit-turk” bo‘yicha yaratilgan asarlar ko‘rsatkichi” kitobi va bir qancha dissertatsiyalar asosida qiyosiy, statistik, qiyosiytarixiy metodlardan foydalanilgan.

“V.A. Zvechintsevning fikricha, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” asari qadimgi tilshunoslikda yaratilgan asarlarning eng xarakterlisidir” [7:57].

“Devonu lug‘otit-turk” asari topilgandan keyin juda ko‘p tillarga tarjima qilindi, juda ko‘p olimlar tomonidan o‘rganildi, tadqiq qilindi. Devon bo‘yicha shu kungacha juda ko‘p dissertatsiya va maqolalar yozildi. “Devonu lug‘otit-turk” o‘zbek tiliga ham tarjima qilinib, muhim izoh va tafsirlari bilan 1960-1963-yillari Toshkentda “Fan” nashriyotida 3 jildda chop etilgan. Bu tilshunos olim, filologiya fanlari doktori, professor Solih Mutallibovning 35 yillik mehnati natijasi edi. Unda “Devonu lug‘otit-turk”da uchragan so‘zlar alifbo tarzida keltirilib, so‘zning o‘zbek va rus tilida tarjimasi beriladi. Keyinchalik devonning qayta o‘zbekcha nashri 2016-yilda tilshunos olim, filologiya fanlari doktori, professor Hamidulla Boltaboyev tomonidan Toshkentda “Mumtoz so‘z” nashriyotida 3 jildda chop etilgan. Oradan ko‘p o‘tmay yana bir o‘zbek mashhur o‘zbek olimlaridan biri filologiya fanlari doktori, professor Qosimjon Sodiqov tomonidan 2017-yilda “G‘afur G‘ulom” nashriyotida yaxlit bir kitob shaklida nashr qilindi.

Shuningdek, asarning boshqa tillarga ham to‘liq tarjimalari mavjud: uyg‘ur, ozarbayjon, qozoq, ingliz, nemis, xitoy, rus va eron tillariga ham tarjima qilingan. Shundan keyin jahon tilshunosligida adibning “Devon”iga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlari yaratildi. Ayniqsa, turk olimlarining izlanishlari tahsinga sazovor. Jumladan, A.İ.Elöve, Ferit Birtek, F.Köprülü, Necib Asım, M.Ş.Ülküşir kabi olimlar “Devonu lug‘otit-turk”da keltirilgan maqol va she‘rlar to‘g‘risida, Banguoğlu, Tahsin, A.Caferoğlu, Ali Karamanoğlu, M.Ş.Ülküşir, Zeki Velidi Togan, R.Arat, T.Tekin, F.Jiylan, E.Teres, N.Demir, E.Yilmaz va boshqalar asarning til xususiyatlari bilan bir qatorda Mahmud Qoshg‘ariyning hayoti, ijodiy faoliyatini ham yoritishgan, A.Battal devon tarjimasi borasida tadqiqot ishlari olib borishgan [5:30].

Dunyoning bir qator davlatlarida Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” asari tarjima qilinib, nashr etilgan. Asarning ingliz tilidagi tarjimasi 1982–1985 yillarda Garvard universitetida uch jildda nashr etilgan. Uni ingliz olimlari Robert Denkoff va Jimz Makkalilar tarjima qilgan [2:39].

Ingliz tilidagi tarjima Shinasi Tekin va Go‘nul Alpaylarning tahriridan chiqqan. Birinchi jilddagi so‘zboshida asar haqida qo‘shimcha ma‘lumotlar berilgan. Tarjimaning birinchi jildi XI+417 bet, 2-jildi III+831 bet, 3-jildi 337betdan iborat, tiraji ko‘rsatilmagan. Dj. Klouson “Devon” asosida qadimgi turkiy til lug‘atini tuzdi.

**“O‘ZBEK FILOLOGIYASI:
MUAMMO VA YECHIMLAR”
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani**



J. Kelining qator maqolalari e’lon qilindi. “Devon” tili bilan bog‘liq maqolalar ingliz tiliga tarjima qilinib, chop etildi [5:18].

Asg‘ar Agaboyevning qozoq tilidagi tarjimasi Almatida bosilib chiqqan. Tarjimaning 1-jildi [592 bet], 2-jildi [528 bet] 1987 yilda, 3-jildi [600 bet] 1998 yilda 3000 nusxada nashr etilgan.

1996 yilda Muhammad Dabir Siyoqiy tomonidan qilingan “Devon”ning fors tilidagi tarjimasi Tehronda chop etilgan. Tarjimada K. Brokelmann va D. Dilchin tadqiqotdan foydalanilgan. Muhammad Dabir Siyoqiy tomonidan ham qator kamchiliklarga yo‘l qo‘yilgan. Shu bois tarjimadan yuzlab tushunarsiz so‘zlar o‘rin olgan. 2005 yilda Husayn Muhammadzoda Siddiq “Devon”ning fors tilidagi yangi tarjimasini 2500 adadda Tabrizda nashr ettirdi. Ushbu nashr bir jild, 628 betdan iborat. Kitob mundarija, tarjimon so‘zboshisi, matn [97 –623], tarjimonning turkcha va lotin yozuvidagi ikki betli qisqa so‘zdan tashkil topgan. Husayn Muhammadzoda Siddiq 53 sahifalik so‘zboshida “Devon”ning muallifi, tug‘ilib o‘sgan joyi va qabri, asar yozilgan vaqt, nashrlari va tarjimalari, olimlarning asar haqidagi eng muhim tadqiqotlari borasida fikr bildirgan [6:112].

Tatar olimi X. Mahmudov “Devon”dagi maqollar soni, ularning mavzular bo‘yicha tasniflanishi, tatar tilidagi ekvivalenti kabi masalalarni atroflicha tadqiq qilgan. Asardagi maqollarni tatar tiliga tarjima qilib, nashr ettirgan.

Shunday qilib, ozarbayjonlik turkologlar e’tiboriga tushgan “Devon” yuzasidan yana ko‘plab tadqiqot ishlari olib boriladi. Jumladan, G.A.Bayramov asardagi frazeologik birliklar haqida o‘z maqolasini e’lon qiladi. “Devonu lug‘otit-turk” bibliografiyasi bilan olim R.Askar shug‘ullangan. Ushbu bibliografik ko‘rsatkichda asarning o‘rganilishi masalalariga oid ma’lumotlar berilgan bo‘lib, olim so‘z yasalishi, so‘z turkumlari, Grammatik kategoriyalar bo‘yicha ham izlanishlar olib borgan, uning qator maqolalari e’lon qilingan [1:192]. Bundan tashqari, olim R.Askar “Devon” tarjimasi bilan ham shug‘ullangan, asarni rus va ozarbayjon tillariga tarjima qilgan.

“Devonu lug‘otit-turk” asari ustida ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borgan olimlardan J.Kazimov bo‘ldi. J.Kazimovning “XI-asr tarixiy onomastik leksikasi [Mahmud Qoshg‘arlining “Divanü lug‘at-it-turk” asari asosida]nomli monografiyasi 2008-yilda Bokuda nashr qilindi. J.Kazimovning “Mahmud Qashg‘arlining “Divanu lug‘at-it-turk” asarida onomastik leksika” nomzodlik dissertatsiyasida “Devon”da keltirilgan onomastik birliklarning mazmuni va kelib chiqishi Qabila va qabila tarixining turli bosqichlarida tarixiy-xronologik vaziyatlarni yuzaga keltirgan

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



bog‘lanish va sabablar o‘rganilgan. Kazimov aynan “Devon”dagi onamastiki bo‘yicha 2006-2008 yillar oralig‘ida o‘ndan ortiq maqolalar nashr qildirgan.

Bundan tashqari, Ozarbayjonda A.R.Ragimov tomonidan yoqlangan “Дивану лугат-ит-турк” Махмуда Кашгари и лексика Азербайжанского языка” nomli nomzodlik dissertatsiyasida “Devonu lug‘otit-turk” va hozirgi ozarbayjon leksikasi munosabatlarini morfologik planda o‘rgangan, Ozarbayjon tili leksikasi boyligi, ushbu til uchun arxaiklashib qolgan birliklarni tahlil qilingan. “Devonu lug‘otit-turk” asarining o‘rganilishida turkologiyada boshqird tilshunoslarining ham amalga oshirgan bir qator ishlarini alohida ta’kidlamaslikning iloji yo‘q. T.M.Garipov, K.Z.Axmerov, Dj.G.Kiyekbayev, E.F.Ishberdin, L.Samsiteva, A.Kulanchin [3:23] kabi tilshunos olimlarning ilmiy tadqiqot ishlari eski turkiy til va hozirgi boshqird tili munosabatlarini yoritishga qaratilgan bo‘lib, bu tadqiqotlarning asosiy qismi leksik birliklar va frazeologizmlar tahliliga bag‘ishlangan. Z.A.Xabibullinaning “Devon”ni o‘rganilishini yangi bosqichga olib chiqqanligini e’tirof etish lozim. Shuningdek, muallifning o‘zi va shogirdi A.Haziyevaning tadqiqotlarida “Devonu lug‘otit-turk” leksikasi va terminologiyasi sinchkovlik bilan tadqiq qilingan. Tatar turkologlari ichidan Jamil Validov o‘zining “О словаре турецких языков Махмуда Кашгарского”, A.Xalidov “Düvan Lugat it-Turk“ в сравительном освещении с его арабским прототипом“, “Словари Исхака ал Фараби и Махмуда Кашгари [из истории лексикографии в Средней Азии X-XI вв.]” nomli maqolalarida “Devonu lug‘otit-turk” haqida ma’lumotlar berib o‘tadilar. Shuningdek, ushbu maqolalarda tatar tili va eski turkiy tillar bilan munosabati haqida to‘xtalib o‘tilgan. A.M.Krimiskiy esa o‘zining “Turkiylar, ularning til va adabiyoti” nomli asarini “Devon”ga bag‘ishlagan. Turkman tilshunos olimi S.Axalli 1958- yilda yoqlangan “Махмуд Кашгарынинг созлуги ве туркмен дили” mavzusidagi dissertatsiyasi 2 bob va xulosadan iborat bo‘lib, dastlabki bobda “Devonu lug‘otit-turk”ning fonetik, leksik va morfologik jihatlari haqida so‘z borgan, ikkinchi bobida esa “Devon” bilan turkman tilining leksik fondi qiyosiy o‘rganganligi aks etgan. A.Barovkovaning 1966-yilda yoqlangan “Грамматический очерк языка “Дивану лугат-ит турк” Махмуда Кашгари” nomli nomzodlik dissertatsiyasining birinchi bobi chigil tilining grammatik sharhiga bag‘ishlangan. Ushbu dissertatsiyada chigil tilining fonetik va morfologik sathlari ochib berilgan. Ishning ikkinchi bobida esa Mahmud Qoshg‘ariy tili, turkiy tillarni izohlashdagi uslubi va qarashlariga alohida to‘xtalgan. Bundan tashqari, asarning fonetik terminalogiyasiga, lab undoshlari hamda cho‘ziq unlilarga bag‘ishlangan bir qator maqolalar ham chop ettirgan. 1990-yili Qozog‘istonda Valeriy Uygurovich “Собственные имена в памятнике XI в “Дивану лугат-ит



турк” Махмуда Кашгарского” nomli nomzodlik dissertatsiyasi yoqlangan. Dissertatsiyada “Devonu lug‘otit-turk” asaridagi onomastik birliklar tadqiqi, antronym, toponim, etnonimlar atroflicha tahlil qilingan bo‘lib, ularning etimologiyasiga e‘tibor qaratish kabi masalalar ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, “Devonu lug‘otit-turk”dagi atoqli otlarning strukturgrammatik ahamiyatini shakllantirish, atoqli otlardan antroponym, etnotoponimlarning hosil bo‘lish jihatlari ham alohida to‘xtalib o‘tilgan. Qirg‘iz va qozoq tillaridagi tadqiqotlarga misol sifatida T.Tokoyev va J.A.Semenova, I.SH.Sultanaliyev, E.Kurishjonov, R.Qayirbayeva, R.Magriyov, T.Gariyov, O.Naqisbekovlarning ilmiy izlanishlarini keltirish mumkin. Jumladan, I.SH.Sultanaliyevning maqolasida “Devon”ning o‘zbek, uyg‘ur, qozoq, turk, qirg‘iz tillariga qilingan tarjimalari asarning asl nusxasi bilan qiyoslangan. Bundan tashqari, B.Orzubayeva, M.Usmambetovlarning tadqiqotlarida ham “Devonu lug‘otit-turk”ning til xususiyatlari atroflicha yoritilgan [3:24].

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, "Devonu lug‘otit-turk"ning turkologiyada o‘rganilishi, uning faqat bir tildagi so‘zlarni tasniflash bilan cheklanmasligini, balki turk xalqlarining tarixiy, madaniy va ijtimoiy hayotini o‘rganish uchun ham zarur bo‘lgan bir manba ekanligini ko‘rsatadi. Mahmud al-Koshg‘ariy yaratgan bu asar nafaqat tilshunoslik va lingvistika, balki etnologiya, antropologiya, tarix va madaniyatshunoslik kabi sohalarda ham katta ahamiyatga ega. "Devonu lug‘otit-turk" hozirgi kunda turkologiyaning asosiy manbalaridan biri sifatida ilmiy tadqiqotlarda keng qo‘llanilmoqda va uni o‘rganish davom etmoqda, chunki u nafaqat tilning o‘zgarishini, balki turkiy xalqlarning madaniyatini va dunyoqarashini yoritadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Asker Ramiz. Divanu Ltigat-it-Tiirk istatistikleri // 2. Uluslararası Turkiyat Araştırmaları Bilgi Ş6leni Bildirileri. Kaşgarlı Mahmud ve Donemi. 28 -30 Mayiis 2008. - Ankara, 2009. - S.33 - 44.
2. Mahmud al-Kashgari. Divan lugat at-Turk. Kazaxstanskiye vostokovednie issledovaniya. Perevod,predisloviye i kommentarii Z. –A. M. Auezovoy. Indeksi sostavleni R. Ermersom. – Almati: Dayk-Press, 2005. – S. 11. 39
3. Розикова Г. “Девону луғотит турк” асаридаги от лексемаларнинг семантик; функционал ва услубий хусусиятлари. Филол. фан. д-ри. ...дисс, –Ф., 2021.
4. Худойбердиев Ж. Махмуд Кошғарий ҳаёти ва унинг “Девону луғотит турк” асарининг ўрганилиши. – Т., 2010. – 46 б.
5. Худойбердиев J. Mahmud Qoshg.,ariy hayoti va “Devonu lug.,otit turk” bo.,yicha yaratilgan asarlar ko‘rsatkichi. – Т.: Akademnashr, 2011. – В. 18.
6. Muxtorov A., Sanaqulov U. O‘zbek adabiy tili tarixi. – Т.: O‘qituvchi, 1995. – В. 112.4